O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

# 60730200-Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish bakalavriat ta’lim yo’nalishining malaka talablari

Toshkent-2023

ЎзР ОЎМТВ
Буйруқ № 367
«21» 08 2023 йил

**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

- Toshkent arxitektura-qurilish universiteti;
- Urganch davlat universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» 08 dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA



| T/r | | bet |
|---|---|---|
| 1. | *60730200 - Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish* bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi.......................... | 4 |
| 1.1. | Qo'llanilish sohasi ........................................................................................ | 4 |
| 1.1.1. | *60730200 - Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.......................... | 4 |
| 1.1.2. | Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.............................................. | 4 |
| 1.2. | *60730200 - Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi..... | 5 |
| 1.2.1. | *60730200 - Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari....... | 5 |
| 1.2.2. | *60730200 - Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari. | 5 |
| 1.2.3. | *60730200 - Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari..... | 5 |
| 1.2.4. | *60730200 - Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari............. | 6 |
| 2. | *60730200 - Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar. | 7 |
| 2.1. | Umumiy kompetensiyalar.................................................................................. | 7 |
| 2.2. | Kasbiy kompetensiyalar.................................................................................... | 8 |
| 2.3. | Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarini egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar ........................................................... | 9 |
| 2.3.1. | Kvalifikatsiya.................................................................................................... | 9 |
| 2.3.2. | *60730200 - Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish* bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlar mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.............................................................. | 9 |
| 2.3.3. | *60730200 - Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlarni klassifikatsiyalash (tasniflash) ............................................................................................ | 10 |
| | Bibliografik ma'lumotlar.................................................................................. | 12 |
| | Kelishuv varag'i................................................................................................ | 13 |

**1. *60730200 - Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish* bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi**

***60730200 — Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish*** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

**1.1. Qo'llanish sohasi.**

**1.1.1. *60730200 - Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish ta'lim* yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi *5340300 - Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

**1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hadmda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abiturientlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. ***60730200 - Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

1.2.1. ***60730200 - Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatnning sohalari:**

***60730200 - Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish*** — qurilish sohasidagi yo'nalish bo'lib, u davlat, aksionerlik va xususiy kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarini boshqarish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollarini belgilash bo'yicha boshqarish, tashkiliy masalalar yechimlarini rivojlanish qonuniyatlari va zamonaviy konsepsiyalari asosida ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq kompleks masalalardan iborat kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. ***60730200 - Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

- davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;
- qurilishning va kommunal infratuzilmasidagi turli soha va tarmoqlarida tashkilot, korxona va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;
- boshqaruvda vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoyillarini tadbiq etish, davlat va shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkillashtirishda boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;
- shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag'batlantirish jarayonlari.

***60730200 — Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish*** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomomnidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. ***60730200 — Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- tashkiliy-boshqaruv.
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish:
- axborot-tahliliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tadbirkorlik.

**1.2.4. *60730200 — Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

***60730200 — Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish*** ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy iqtisodiy bilimlarni qo'llash orqali boshqarish;
- tashkilot, korxona va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;
- birlamchi ishlab chiqaruvchi bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;
- korxonalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muxofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-hatarlarni tahlil qilish.
- ishlab chiqarish va kommunal infratuzilmani tashkil etish va xizmat

ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llaash, investitsion loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish.

**Axborot-tahliliy faoliyatida:**

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;
- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;
- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;
- loyihalar samaradorligini baholash;
- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;
- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlashga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish va tizimlashtirish;
- tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tadbiq etish.

**Tadbirkorlik faoliyatida:**

- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;
- shahar qurilishi va kommunal infratuzulmani tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

**2. *60730200 - Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar**

**2.1. Umumiy kompetentsiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani muammolarni va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana

bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

**2.2. Kasbiy kompetentsiyalar:**

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llaash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani axborot tizimlarini va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;

- strategik va operatsion boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;

- strategik tahdid qilish, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etishda moliyaviy boshqaruvning asosiy usullarini qo'llay bilish;

- loyihalar va shartnomalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etishda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, ularni aniq boshqaruv vazifalariga moslashtirish orqali va tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani boshqaruv ma'lumotlari asosida boshqarish va qarorlarni qabul qilish uquviga ega bo'lish;

- yangi tashkilotlarni (faoliyat yo'nalishlari, mahsulotlari) yaratish va rivojlantirish uchun shaharsozlik va uy-joylarni ekspluatatsiyasi kompetensiyalarida biznes rejalashtirish yaratish va rivojlantirish ko'nikmalariga ega bo'lish.

**2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarini egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

- Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.
- Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.
- Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida, ixtisoslashuvidan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi malakaviy amaliyotlar o'tkaziladi:

- 1-bosqichda malakaviy amaliyot – O'quv-tanishuv amaliyot o'tilgan fanlar bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallashga qaratiladi;
- 2,3-bosqichlarda malakaviy amaliyot - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;
- 4-bosqichda malakaviy amaliyot - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'lumot to'plash va tizimlashtirishga qaratiladi;
- Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq malakaviy amaliyotlarning boshqa turlari ham qo'llanilishi mumkin.

**2.3.1. Kvalifikatsiya**

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilarga muhandis-quruvchi kvalifikatsiyasi beriladi.

***2.3.2. 60730200 – Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlar mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar***

*2.3.3. 60730200 – Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlarni klassifikatsiyalash (tasniflash).*

| O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilagan soat | Ajratilgan kredit |
|---|---|---|
| Majburiy fanlar | 5190 | 173 |
| Tanlov fanlari | 1380 | 46 |
| Malakaviy amaliyot | 480 | 16 |
| Yakuniy davlat attestatsiyasi | 150 | 5 |
| **Jami** | **7200** | **240** |

***60730200 – Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish*** **bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:**

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Fan o'tiladigan semestr |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.00** | | **Majburiy fanlar** | **5190** | **173** | |
| 1.01 | OMAB1092 | Oliy matematika | 270 | 9 | 1,2 |
| 1.02 | FIZB1092 | Fizika | 270 | 9 | 1,2 |
| 1.03 | QATB1102 | Qurilishda axborot texnologiyalari | 300 | 10 | 1,2 |
| 1.04 | O`(R)TB1041 | O'zbek (rus) tili | 120 | 4 | 2 |
| 1.05 | XTB1062 | Xorijiy til | 180 | 6 | 1,2 |
| 1.06 | FALB2041 | Falsafa | 120 | 4 | 4 |
| 1.07 | DinB2041 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 4 |
| 1.08 | O'EYTB1041 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.09 | JTSB1052 | Jismoniy tarbiya va sport | 150 | 5 | 1,2 |
| 1.10 | ChGMGB1102 | Chizma geometriya va muhandislik grafikasi | 300 | 10 | 1,2 |
| 1.11 | QMEB2143 | Qurilish mexanikasi (nazariy mexanika, materiallar qarshiligi, qurilish mexanikasi) | 420 | 14 | 3,4,5 |
| 1.12 | IGB2051 | Injenerlik geodeziyasi | 150 | 5 | 3 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1.13 | QMBB2051 | Qurilish materiallari va buyumlari | 150 | 5 | 3 |
| 1.14 | QKOB3092 | Qurilish konstruktsiyalari (metall konstruktsiyalari, temir-beton konstruktsiyalar) | 270 | 9 | 5,6 |
| 1.15 | ShQTTB3143 | Shaharlarni qurish va ta'mirlash texnologiyasi | 420 | 14 | 5,6,7 |
| 1.16 | GMZPB3051 | Gruntlar mexanikasi, zamin va poydevorlar | 150 | 5 | 5 |
| 1.17 | QIMB4082 | Qurilish iqtisodiyoti va menejmenti | 240 | 8 | 7,8 |
| 1.18 | ShQLB2092 | Shahar qurilishi va loyihalash asoslari, shahar hududini injenerlik tayyorlash | 270 | 9 | 3,4 |
| 1.19 | ShIIB4092 | Shahar injenerlik inshootlari | 270 | 9 | 7,8 |
| 1.20 | ShKYTB3092 | Shahar ko'chalari, yo'llari va transport | 270 | 9 | 5,6 |
| 1.21 | ShQXB4092 | Shahar qurilishi va xo'jaligini tashkillashtirish, rejalash, boshqarish va iqtisodiyoti | 270 | 9 | 7,8 |
| 1.22 | BIRTEB3123 | Bino va inshootlar rekonstruktsiyasi va texnik ekspluatatsiyasi | 360 | 12 | 6,7,8 |
| 2.00 | | **Tanlov fanlari** | 1380 | 46 | |
| | | **Jami** | **6570** | **219** | |
| | | **Malakaviy amaliyot** | 480 | 16 | |
| | | Yakuniy davlat attestatsiyasi | 150 | 5 | |
| | | **Jami** | **630** | **21** | |
| | | | **7200** | **240** | |

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7 Guruh T 55

OKS 01:040, 01

**Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ektda, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, shahar qurilishi, kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, musta'il ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:**

**Urganch davlat universiteti**

**Rektor ____________ B.Abdullayev**

**2023 "______" "______________"**

**M.O'.**

**KELISHILGAN:**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

**Direktor __________________**

**SH.Yakubov**

**2023 yil «_____» ___________**

**M.O'.**

**Toshkent arxitektura-qurilish universiteti**

**Rektor______________ E.Kahya**

**2023 yil «______» ______________**

**M.O'.**

**Xorazm viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi**

**Boshlig'i_____________ B.P.Karimov**

**2023 yil "_____" "____________"**

**M.O'.**

**Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi**

**Boshlig'i_____________M.Allaberganov**

**2023 yil "_____" "____________"**

**M.O'.**

**Urganch davlat universiteti**
**60730200-Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

# KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh. "___" ___________2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent arxitektura-qurilish universiteti rektori E.Kahya va Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi boshlig'i B.P.Karimov birgalikda Urganch davlat universitetida ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

***60730200-Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish* ta'lim yo'nalishi**

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot soxalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan. Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi boshlig'i** — **B. Karimov**

**Urganch davlat universiteti rektori** — **B. Abdullayev**

**Toshkent arxitektura-qurilish universiteti rektori** — **E. Kahya**

**Urganch davlat universitetida ishlab chiqilgan 60730200-Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga**

## TAQRIZ

"Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta'lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta'lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg'or jahon darajasiga muvofiqligini ta'minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog'liq.

60730200-Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida", qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli hamda O'zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli buyrug'i, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

60730200-Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashuv sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim

makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalaining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60730200-Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**Xorazm viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi boshlig'i** **B.P.Karimov**

**Urganch davlat universitetida ishlab chiqilgan 60730200-Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga**

## TA Q R I Z

Urganch davlat universitetida 60730200-Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi malaka talablarini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018 yil 3 apreldagi 5002-sonli topshirig'i va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori hamda 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422 "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 10 iyuldagi PQ-4779 "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

60730200-Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda talabaning kelgusida faoliyat olib boradigan ob'ektlari misolida fan va texnikaning ilg'or yutuqlaridan foydalangan holda jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlarni shakllantirishda ularning mazmuni jihatidan izchilligi ta'minlangan bo'lib, bugungi kun talabidan kelib chiqib yangi fanlar kiritilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda asosiy kadr iste'molchilari

bo'lgan korxona va tashkilotlarning talab hamda takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60730200-Shahar qurilishi hamda kommunal infratuzilmani tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**Toshkent arxitektura-qurilishi universiteti "Shahar qurilishi va xo'jaligi" kafedrasi mudiri v.b.** **F.A.Abdixalilov**